



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedراس professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali
23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




MUNDARIJA

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmi rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AYOLLAR BANDLIGIGA DOIR MUAMMOLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna

*University of Business and
Science tayanch doktoranti
E-mail: dumurzakova5@gmail.com
ORCID: 0009-0008-4660-0104*

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligining dolzarb masalalari, ularning mehnat bozoridagi ishtiroki hamda raqamli texnologiyalarning ayollar bandligiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, ayollarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish, masofaviy ish imkoniyatlarini kengaytirish va gender tengligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan. Tadqiqot natijalari ayollar bandligini oshirishda raqamli transformatsiyaning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, ayollar bandligi, mehnat bozori, gender tengligi, raqamli ko'nikmalar, masofaviy ish, innovatsiyalar.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПРОБЛЕМ ЗАНЯТОСТИ ЖЕНЩИН В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Умурзакова Дильдора Султанмахмудовна

*докторант (PhD)
University of Business and Science
E-mail: dumurzakova5@gmail.com
ORCID: 0009-0008-4660-0104*

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальные проблемы занятости женщин в условиях цифровой экономики, анализируется их участие на рынке труда, а также влияние цифровых технологий на уровень занятости женщин. Особое внимание уделяется развитию цифровых навыков, расширению возможностей дистанционной занятости и обеспечению гендерного равенства. Результаты исследования показывают важность цифровой трансформации в повышении уровня занятости женщин.

Ключевые слова: цифровая экономика, занятость женщин, рынок труда, гендерное равенство, цифровые навыки, дистанционная работа, инновации.

MAIN DIRECTIONS OF WOMEN'S EMPLOYMENT PROBLEMS IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY

Umurzakova Dildora Sultanmakhmudovna

*Doctoral Student (PhD)
University of Business and Science
E-mail: dumurzakova5@gmail.com
ORCID: 0009-0008-4660-0104*

Abstract. This article examines the key issues of women's employment in the context of the digital economy. It analyzes women's participation in the labor market and the impact of digital technologies on employment opportunities. Particular attention is given to the development of digital skills, the expansion of remote work opportunities, and the promotion of gender equality. The findings highlight the significant role of digital transformation in increasing women's employment and improving their economic participation.

Keywords: digital economy, women's employment, labor market, gender equality, digital





skills, remote work, innovation.

Kirish

Raqamli iqtisodiyot bu faoliyat yuritishda zamonaviy raqamli hisoblash texnologiyalaridan foydalaniladigan iqtisodiyotning yangi ko‘rinishi hisoblanadi. Jahon iqtisodiyot forumi (WEF) ma’lumotlariga ko‘ra, 2020 yildan boshlab kelgusi 10 yil ichida jahon iqtisodiyotining deyarli 70 foizi raqamli texnologiyalardan iborat bo‘ladi[1]. Bu ayniqda COVID-19 pandemiyasidan so‘ng internetdan foydalanish hamda ijtimoiy tarmoqlarga kirish tendentsiyasi tezlashgandan so‘ng yanada ommalshib ketti[3]. Hozirgi kunda insonlar ko‘proq onlayn ishlashni afzal ko‘rmoqdalar va onlayn faollikning oshishi natijasida internet tizimlarini qo‘llab-quvvatlovchi kompaniyalar daromadlari ham oshib bormoqda [4].

Adabiyotlar sharhi

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib tovarlarni ishlab chiqarish, aholiga xizmat ko‘rsatish, hatto iste‘mol jarayonlarida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ommalashishi, kompyuter texnologiyalari hamda smartfonlarning jamiyatda barqaror o‘rin egallashi “raqamli iqtisodiyot” kontsepsiyasini vujudga keltirdi[5]. Zamonaviy bozor iqtisodiyotiga sun‘iy intellekt, big data, cloud texnologiyalar, blokcheyn kabi yo‘nalishlarning kirib kelishi bu kontsepsiyani yanada rivojlanishiga poydevor bo‘ldi deyish mumkin[6]. Bugungi kunga kelib raqamli iqtisodiyot kontsepsiyasi global iqtisodiy o‘shishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Buni axborot texnologiyalarining insonlar orasida ommalashishi hamda va jamiyat hayotiga chambarchas bog‘liq bo‘lib borayotganidan ham ko‘rish mumkin.

“Raqamli iqtisodiyot” atamasi 1990-yillarning boshlarida paydo bo‘lgan bo‘lib, bu davrda Nyu-York universitetiga qarashli “Raqamli iqtisodiyot” tadqiqot markazida ko‘plab ilmiy ishlar hamda maqolalar chop ettirilgan. “Raqamli iqtisodiyot” atamasi 1995-yilda Don Tapscott tomonidan nashr etilgan “The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence” (“Raqamli iqtisodiyot: tarmoqlangan intellekt asrida va‘da va xavf”) nomli kitobda ham ilk bor qo‘llanilgan hamda kitobning nomlanishida ham bu termin ishlatilgan[7]. R.Bukht va R.Heeks raqamli iqtisodiyotga “raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarilgan hamda taqsimlangan tovar va xizmatlar majmui” deb ta’rif beradilar[8]. Keyinchalik, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) 2000-yillardan boshlab raqamli iqtisodiyotni alohida ilmiy va siyosiy yo‘nalish sifatida tadqiq etish boshladi [6].

Tadqiqot metodologiyasi

AQShlik iqtisodchi olim Tomas Mesenburgning o‘z tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot konsepsiyasini uchta asosiy qismga ajratib o‘rganadi (1.1-rasm) [6]:

1.1-rasm.

Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasining asosiy qismlari*



*Muallif ishlanmasi.

a) Elektron biznes infratuzilmasi - dasturiy ta‘minot, tarmoqlar, telekommunikatsiya, inson kapitali va boshqalarni o‘z ichiga oladi;

b) Elektron biznes – tashkilot tomonidan kompyuter va zamonaviy texnologiyalar orqali boshqariladigan va turli xil tarmoqlar yordamida amalga oshiriladigan barja moliyaviy jarayonlar;






c) Elektron tijorat – tovarlar va xizmatlar savdosini online amalga oshirish.
Iqtisodchi olim Bill Imlahning ta’kidlashicha, ijtimoiy tarmoqlar hamda internet qidiruvidagi yangi ilovalar tobora murakkablashib, chegaralarni oshirib bormoqda.

1.2-rasm.

Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanish jarayonlari



*Muallif ishlanmasi.

Raqamli iqtisodiyot atamasi turli xil manbalarda Veb-iqtisodiyot, Internet iqtisodiyoti, Yangi iqtisodiyot, Kriptoiqtisodiyot, kabi turlicha nomlar bilan ham yuritiladi. Bugungi kunda shuni guvohi bo'lishimiz mumkinki, raqamli iqtisodiyot an'anaviy jigarrang iqtisodiyotning o'rnini bosqichma-bosqich egallab hamda sohalaridagi chegaralarni kengaytirib bormoqda va buning natijasida, ikki iqtisodiyot turini bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib bormoqda. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqamli iqtisodiyot World Wide Web (www) va blokcheyn texnologiyalari, inson resurslari, korxonalar, tashkilot, muassalar va albatta zamonaviy smartfonlar, kompyuterlar, serverlar kabi texnologik qurilmalar orqaligina amalga oshiriladi.

1.3-rasm.

Raqamli iqtisodiyot modelini rivojlanish bosqichlari*



*Muallif ishlanmasi.





Raqamli texnologiyalarni kashf qilish hamda shakllantirishdan dastlabgi maqsadlar hisob-kitoblarni tezlashtirish hamda qulaylashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish edi. Vaqt o'tishi bilan bu jarayon iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib qoldi hamda mutlaqo yangi model raqamli iqtisodiyotni modelini shakllantirdi[9].

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, raqamli iqtisodiyot atamasining paydo bo'lish jarayoni bir nechta ketma-ket bosqichlardan iborat hamda u nafaqat texnologik izlanishlarning taraqqiyot natijasi, balki iqtisodiyotning ham tubdan yangilanishiga sabab bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda, yangi bozorlar, kasblar va yangi boshqaruv mexanizmlarini ham yuzaga keltiradi[6]. Tadqiqotlarimiz natijasida shuni guvohi bo'ldikki, raqamli iqtisodiyotning tarixi XX asrning o'rtalaridan boshlangan bo'lib, bugungi kunda global iqtisodiy tizimning ajralmas qismiga aylangan. Uning o'ziga xosligi texnologik innovatsiyalarni iqtisodiy va ijtimoiy hayotga integratsiya qilishdadir. Shunday qilib, raqamli iqtisodiyot nafaqat yangi ishlab chiqarish vositalarini, balki yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimni ham shakllantirmoqda[10].

Raqamli iqtisodiyotga global darajada o'tish mehnat bozorlari sharoitlarini o'zgartirib, aholiga, ayniqsa ayollar uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda, ammo, ayrim muammolarni ham yuzaga keltirmoqda[11]. O'zbekistonda raqamli transformatsiya jadallik bilan rivojlanib, barqaror rivojlanish milliy kun tartibiga aylanib bormoqda. Biroq, ayrim sohalarda hamon gender tengsizliklari saqlanib qolmoqda va bunga ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamda texnologik omillar ta'sir ko'rsatmoqda[12]. Tadqiqotimizda O'zbekistonning raqamli sektoridagi ayollar bandligi holatini tahlil qilish, mavjud to'siqlarni aniqlash va inklyuzivlikni oshirish bo'yicha siyosiy amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishni maqsad qilingan.


Tahlil va natijalar

Bugungi kunda mamlakatimizda ayollar bandligi sohasida katta islohotlar amalga oshirilayotganligi hamda ijobiy o'zgarishlar bo'layotganini guvoh bo'lib kelmoqdamiz[12]. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ayollar uchun masofaviy ishlash, onlayn tadbirkorlik va moslashuvchan ish sharoitlarini yaratgan bo'lsada, mehnat bozorida gender tengligini ta'minlash hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda[13]. 2025-yilning “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili” deb e'lon qilinishi ushbu muammolarni hal qilishni yanada dolzarb qiladi, chunki barqarorlik va raqamli iqtisodiyot gender muammolari bilan chambarchas bog'liqdir[14].

Tadqiqotlarimiz natijasida shuni guvohi bo'ldikki, raqamli iqtisodiyotda ayollar bandligiga doir asosiy muammolarni bir nechta guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin (4-rasm):

1.4-rasm.

Ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari*



*Muallif ishlanmasi.

1. Raqamli gender tafovuti:





- Ko‘plab ayollar hali ham raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega emas;
- Raqamli savodxonlik yetishmovchiligi ularning onlayn ish va tadbirkorlikda faol ishtirok etishini cheklaydi;

- Jamiyatdagi an’anaviy qarashlar ayollarning raqamli sohalarga kirib kelishiga to‘sqinlik qilishi mumkin;

2. Mehnat bozorida gender tengsizligi mavjudligi:

- Ayollar yuqori daromadli raqamli sohalarda – IT, muhandislik va moliyaviy texnologiyalarda (fintech) kam uchraydi[15];

- Ko‘plab ayollar past maoshli raqamli ishlarga (masalan, onlayn savdo, mijozlarga xizmat ko‘rsatish va kontent moderatsiyasi) jalb etilgan;

- Ayollar raqamli mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi uchun yetarli kasbiy ta’lim va STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) bilimlariga ega emas[16];

3. Ish va oilaviy hayot muvozanati muammosi:

- Masofaviy ish sharoitlari moslashuvchanlikni oshirsa ham, ayollarning uy yumushlari yukini ham orttiradi;

- An’anaviy gender rollari tufayli ayollarning kasbiy o‘sishi va martaba rivojlanishi cheklanib qolmoqda;

4. Raqamli infratuzilma va qonunchilikdagi kamchiliklar:

- Mavjud mehnat qonunchiligi raqamli mehnat bozoridagi gender muammolarini yetarlicha qamrab olmaydi;

- Ayol tadbirkorlar raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda;

- Internet xavfsizligi va kiberjinoyatchilik muammolari ayollarning onlayn tadbirkorlik va frilansga jalb qilinishiga to‘sqinlik qilmoqda;

2025-yilda O‘zbekiston yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik masalalariga katta e’tibor qaratayotgan bir vaqtda, ayollar bandligi uchun yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Biroq, bu sohadagi mavjud bir qator muammolar hamon dolzarbligicha qolmoqda va yechim kutmoqda[1]:

a) Ayollarning yashil kasblarda kam ishtirok etishi:

- Yashil iqtisodiyotning qayta tiklanuvchi energiya, ekologik qishloq xo‘jaligi va muhandislik sohalari asosan erkaklar tomonidan egallangan;

- Maxsus tayyorgarlik dasturlarining yo‘qligi ayollarning ushbu sohalarga kirishini qiyinlashtiradi;

b) Ayollar uchun yashil texnologiyalar va tadbirkorlik imkoniyatlarining cheklanganligi:

- Ayol tadbirkorlar yashil biznesni rivojlantirish uchun moliyaviy resurslarga ega emaslar;
- Ayollarning yashil texnologiyalar sohasida tajriba almashish va murabbiylik tizimi yaxshi rivojlanmagan;

c) Davlat siyosati va institutsional to‘siqlar:

- Yashil iqtisodiyot dasturlarida gender tengligi tamoyillari hali yetarlicha aks ettirilmagan;
- Davlat tashabbuslari ayollarni barqaror rivojlanish loyihalariga faol jalb qilishga qaratilishi kerak;

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xotin-qizlar bandligi muammolarini hamda yo‘nalishlarini o‘rganib chiqib ularni bartaraf etish bo‘yicha o‘z taklif va tavsiyalarimizni ishlab chiqdik. Muammolarda bo‘lgani kabi, yechimlarni ham yo‘nalishlarga bo‘ldik hamda mos ravishda guruhladik:

a) Raqamli gender tafovutini bartaraf etish:

- Ayollar uchun maxsus raqamli savodxonlik kurslarini tashkil etish, ayniqsa, qishloq joylarda;

- Ayol tadbirkorlar uchun raqamli texnologiyalar va moliyaviy xizmatlardan foydalanishni soddalashtirish;

b) Ayollarni SMM, STEM va boshqa raqamli kasblarga jalb etish:





- IT, muhandislik va moliyaviy texnologiyalar sohasida ayollar uchun grant va stipendiyalar taqdim etish;
- Ayollarga raqamli sohalarda o‘shish imkoniyatlarini yaratish uchun murabbiylik va maslahat tarmoqlarini rivojlantirish;
- c) Ish va oilaviy hayot muvozanatini ta’minlash:
 - Ish beruvchilarni gender-inqilobiy mehnat siyosatlarini joriy etishga rag‘batlantirish;
 - Ish joylarida ayollar uchun moslashtirilgan ish sharoitlarini yaratish, bolalar bog‘chalari va oilaviy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish;
- d) Ayollarni yashil iqtisodiyotga jalb etish:
 - Ayollar rahbarligidagi yashil startaplar uchun moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratish;
 - Yashil iqtisodiyotning turli sohalarida ayollar uchun maxsus kasbiy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish;
- e) Qonunchilik va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish:
 - Raqamli va yashil iqtisodiyotda gender tengligini ta’minlaydigan qonunlarni ishlab chiqish;
 - Ayollarga nisbatan onlayn tahdid va kiberjinoyatlarga qarshi himoya choralari kuchaytirish.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot va yashil iqtisodiyot rivojlanishi ayollar bandligi uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda, biroq hali ko‘plab muammolar mavjud[2]. Raqamli tafovutni kamaytirish, ayollarni yuqori daromadli yashil ish o‘rinlariga jalb qilish va genderga oid ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni takomillashtirish barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. 2025-yilda bu borada amalga oshiriladigan chora-tadbirlar kelajakda ayollar ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida, ayollar bandligini oshirish uchun raqamli va yashil iqtisodiyot tarmoqlarida gender tengligini qo‘llab-quvvatlovchi siyosiy dasturlarni kuchaytirish hamda ayollarga mo‘ljallangan tadbirkorlik dasturlarini moliyaviy rag‘batlantirish va mentorlik tizimini rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish juda ham dolzarb masalalar hisoblanadi. Yuqoridagi tavsiyalarni amalga oshirish, O‘zbekistondagi xotin-qizlar uchun yanada inklyuziv va bardavom raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishi hamda milliy iqtisodiy o‘shishga sezilarli hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yildagi 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030» Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayt / www.president.uz.
3. Bank, European Investment, "Innovation overview 2023"// Template:Cite journal (28 February 2023).
4. Peitz, Martin; Waldfogel, Joel (6 August 2012). The Oxford Handbook of the Digital Economy. Oxford University Press. ISBN 978-0-19-997863-2.
5. Weymouth, Stephen (2023). "Digital Globalization: Politics, Policy, and a Governance Paradox". Cambridge University Press. doi:10.1017/9781108974158. ISBN 978-1-108-97415-8. S2CID 258523148.
6. Bukht, R. va Heeks, R. Defining, Conceptualizing and Measuring the Digital Economy, (2017).
7. Don Tapscott, “The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence” 1995.
8. OECD. Measuring the Digital Economy. Paris: Publishing, 2014.





9. Castells, M. The Rise of the Network Society. Wiley-Blackwell, 1996.
10. K.Schwab, The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum, 2016.
11. Калужский М.Л. Маркетинговые сети в электронной коммерции: институциональный подход / М.Л. Калужский. – М.; Берлин: стр. 402, 2014.
12. O.Umarov Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish tendensiyalari. “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali 2018 yil. № 3, b.4.
13. Bobanazarova J.X. Nimatov I.Raqamli iqtisodiyot rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.//Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2020. -№5., - bet 345
14. Qaxxorov A.J., Habibullayev A.Sh.Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirish zaruriyati. “XXI asr global iqtisodiyoti: iqtisodiy pandemiya va raqamli texnologiyalar” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari., T.: 2021 yil. – bet 454.
15. World Employment and Social Outlook. Trends 2021. https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/---dcomm/-publ/documents/publication/wcms_795453.pdf
16. Pirogova, O., Makarevich, M. The formation of the enterprises human capital in the context of digitalization // E3S Web of Conferences P.164, (2020).

